

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**SARSENBAYEV KONISBAY JAKSILIK ULI**

**T.QAYIPBERGENOV POVESTLARIDA BADIY MAHORAT MASALASI**

**10.00.12 – Qoraqalpoq adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
philological sciences**

**Sarsenbayev Konisbay Jaksilik uli**

T.Qayipbergenov povestlarida badiiy mahorat masalasi ..... 3

**Сарсенбаев Конисбай Жакс依лик улы**

Проблема художественного мастерства в повестях Т.Кайипбергенова.... 25

**Sarsenbayev Konisbay Jaksilik uli**

The problem of artistic mastery in the stories of T. Kayipbergenov..... 51

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 56

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**SARSENBAYEV KONISBAY JAKSILIK ULI**

**T.QAYIPBERGENOV POVESTLARIDA BADIY MAHORAT MASALASI**

**10.00.12 – Qoraqalpoq adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fil4932 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengashning veb sahifasida ([www.tai.uz](http://www.tai.uz)) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Palimbetov Kamalbay Sarsenbayevich**  
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Rasmiy opponenlar:**

**Gaylieva Ogulbay Kurbanmuradovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Kamalova Dilfuza Enuarovna**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**


**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi DS.03/30.04.2021.Fil.20.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2025-yil "28" mart soat 14<sup>09</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25; faks: (99861) 223-59-25, e-mail: [karsu\\_info@edy.uz](mailto:karsu_info@edy.uz)).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (270 raqam bilan ro'yxatga olingan.) Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1 uy. Tel:(99861)223-59-25, faks:(99861)223-59-25; e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "14" mart kuni tarqatildi.  
(2025-yil "14" mart dagi 5 raqamli reestr bayonnomasi).



  
**Q.K. Orazimbetov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
filol.f.d., professor

  
**J.O. Tanirbergenov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD), dotsent

  
**Z.U. Bekbergenova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi filol.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunoslik ilmida povest janrining poetik jihatdan takomillashishiga va yozuvchining individual-uslubiy izlanishlarini tadqiq qilish masalasiga alohida ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa, badiiy adabiyotda milliy povest an'alarining taraqqiyot tendensiyalarini, muallifning ijodiy konsepsiyasini va yozuvchining mahoratini o'rganish adabiy jarayon sifatida davom etmoqda. Povestlarda hayot haqiqatini tasvirlanishi, syujet va kompozitsiyasining yaxlitligining ta'minlanishi, obrazlar tizimi va insonning ma'naviy dunyosining ochilishidagi ijodkorning individual mahoratining tutgan o'rnini aniqlash, yangicha yo'nalishlarda tadqiq qilish zarurligi seziladi. Chunki, yozuvchining badiiy mahorati, shaxsiy stili, povestlarining badiiy syujet yaratishdagi hamda kompozitsiya tarkibidagi izlanishlarning ahamiyati va asar poetikasining o'ziga xos xususiyatlarini ochishning ketma-ketligini ta'minlaydigan asosiy masalalarning biri.

Dunyo adabiyotshunosligida badiylikning har xil ko'rinishlari asosida nasrdagi mahorat masalasining muallif qarashlari, syujet, kompozitsiya, obraz, xarakter, bayon qilish turlari va so'z tanlash, detallarni qo'llanishdagi estetik ideali va badiiy tahlil muammolarini o'rganishning yangicha tamoyillari paydo bo'lmoqda. Shu jumladan, povestlarning poetik tarkibiga bog'liq, alohida yondashishlar ko'zga tashlanib, ijodkorlarning individualligini ta'minlaydigan omillarni va asar g'o'yasini ochishdagi badiiy mahorati, obraz va xarakter, janr va shakliy, uslubiy izlanishlarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilish ishlarini olib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mustaqillik yillarida qoraqalpoq adabiyotshunosligi ilmida yozuvchilarning badiiy ijodini o'rganish, ularning poetik izlanishlari va mahoratining alvon tur sirlarini, adabiy jarayondagi tutgan o'rnini ochib berish, ayniqsa, yozuvchilarning individual o'ziga xos xususiyatlarini va badiiy mahoratini ifodalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, "... adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu avvalo xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q"<sup>1</sup>. Shu ma'noda O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Xalq yozuvchisi To'lqin Qayipbergenov povestlarida g'oyaviy-mavzuviy yo'nalishlar, janr va shakliy izlanishlar, syujet va kompozitsiya, obraz hamda xarakter, badiiy detal, bayon qilish turlarini yoritishdagi poetik mahoratini o'rganish xususiyatlarini belgilab ko'rsatish kabi masalalarni o'rganish adabiyotshunosligimizdagi dolzarb muammolardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-avgustdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёвнинг «Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётига халқаро миқёсида ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари» мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига йўлаган табриги // Халқ сўзи. – Тошкент, 2018 йил 8-август.

davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish to‘g‘risida’gi Farmonlari hamda 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271 son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida’gi Qarori, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon adabiyotshunosligida badiiy mahorat masalasi tadqiqining ilmiy-nazariy muammolari M.M.Baxtin, M.B.Xrapchenko, L.I.Timofeev, A.A.Potebnya, G.N.Pospelov, V.M.Golovko, V.Xalizevlar<sup>2</sup>, turkiy xalqlar, xususan, qozoq olimlari Z.Qabdolov, M.Adibaev, A.Azizov, S.Akasheva, G.Erjanova, J.Bakashovalar<sup>3</sup>, qirg‘iz adabiyotshunoslik ilmidagi A.Abdiramanova<sup>4</sup>, tojik olimlari A.Karimov, X.Xoshimovalar<sup>5</sup>, o‘zbek adabiyotshunosligida A.Abrorov, A.Rashidov, S.Zoxidova, K.Tagmatov, G‘.Tashpulatov, U.Tuychiev, K.Tashanov, F.Radjapova, Yu.Eshmatova, U.Rasulovalar<sup>6</sup>, qoraqalpoq adabiyotshunosligida G.Esemuratov,

<sup>2</sup> Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975. – 502 с.; Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М.: Писатель, 1975. – 408 с.; Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. – М.: Просвещение, 1976. – 200 с.; Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – М.: Искусство, 1976. – 614 с.; О‘sha muallif. Теоретическая поэтика. – М.: Высшая школа, 1990. – 343 с.; Пospelov Г.Н. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 1978. – 351 с.; Головки В.М. Поэтика русской повести. – Саратов: 1992. – 192 с.; Хализев В.Е. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 2002. – 397 с.; О‘sha muallif. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 2004. – 408 с.

<sup>3</sup> Қабдоллов З. Сөз өнері. – Алматы: Мектеп, 1976. – 349 б.; Адіббаев М. О поэтике повестей и рассказов М.О.Ауезова двадцатых годов: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата. 1987. – 24 с.; Эзиев Э. Қазақ повесі. – Алматы: Мектеп, 1989. – 224 б.; Акашева С. Жанрово-стилевые особенности современной повести Казахстана (на материале казахских и русских повестей 60-х-начала 80-х годов: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата. 1991. – 24 с.; Ержанова Г. Қазіргі қазақ повестеріндегі психологизм мәселелері (70-80 жылдар). Филол. ғыл. канд. ... дис. автореф. – Алматы, 1994. – 25 б.; Бакашова Ж. Художественное мастерство Чингиза Айтматова: Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Алматы: 1998. – 52 б.

<sup>4</sup> Абдыраманова А. Поэтика современных кыргызских повестей (70-80-е гг.): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Бишкек, 2002.

<sup>5</sup> Каримов А. Становление лирической повести в современной таджикской прозе 60-80-х годов: Автореф. дис. ... канд. филол. наук – Худжанд, 2010. – 42 с.; Хошимова Х. Идеино-художественные особенности таджикской повести периода независимости: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2015. – 42 с.

<sup>6</sup> Аброров А. Ўзбек совет повестининг таркиб топиши ва тараққиёти: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент, 1975; Рашидов А. Проблема духовно-нравственного становления героя в узбекской повести о рабочем классе: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1981; Захидова С. Жанровые и стилиевые особенности советской узбекской повести (60-70 г): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1982; Тагматов К. Нравственный мир героя и художественные искания в узбекской повести: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1983; Ташпулатов Ф. Нравственные искания в современной узбекской повести (М.М.Дўст, Тагай Мурад, Гаффар Хатам): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1993; Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадийлик (Мезонлари ва уларнинг маромлари). – Т.: Янги аср авлоди, 2011. – 508 б.; Ташанов К. Миллий характер ва бадий таржима. – Т.: Фан ва технология, 2015. – 140 б.; Раджапова Ф. Истиклол даври ўзбек кинесачилигида услуб ва поэтик тил: Филол. фан. д-ри. ... дис. автореф. – Т., 2018; Эшматова Ю. Истиклол даври ўзбек кинесачилигида аёл рухиятининг бадий талқини: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD). ... дис. автореф.

M.Nurmuxamedov, J.Narimbetov, A.Qojiqbaev, Q.Kamalov, S.Bahadirova, Q.Sultanov, J.Esenov, H.Otemuratova, Z.Bekbergenova, K.Allambergenov, P.Nurjanov, J.Sag'iydullaeva, Z.Allamuratova, Z.Ktaybekovalar<sup>7</sup> tomonidan muayyan davrlarda yaratilgan nasriy asarlar misolida o'rganilgan. Chunonchi, badiiy mahorat masalasi adabiyot tarixi va adabiy jarayonda o'z o'rniga ega iste'dodli ijodkorlar asarlari misolida maxsus tadqiq etish eng muhim ilmiy muammolardan sanaladi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Qoraqalpoq adabiyoti kafedrasida ilmiy-tadqiqot rejasida "Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodi va qoraqalpoq adabiyoti tarixi", "Hozirgi davr filologiya nazariyasi va metodikasining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari dasturi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** badiiy mahorat muammosini yozuvchi T.Qayipbergenov povestlaridagi g'oyaviy-mavzuviy yo'nalishlar, janr, shakl xususiyatlari, syujet, kompozitsion qurilishi, badiiy til, obraz va xarakter yaratishdagi izlanishlar misolida aniqlashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

jahon va qoraqalpoq adabiyotshunosligida badiiy mahorat masalasi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda shakllangan nazariy qarashlarni tahlil qilish va ilmiy konsepsiyalarni individual yozuvchilar ijodi misolida umumlashtirish;

badiiy mahorat masalasini yozuvchi T.Qayipbergenovning povest yaratishdagi janr va shakli izlanishlari, g'oyaviy-mavzuviy yo'nalishlari asosida isbotlab berish;

povestlarni struktural tahlil asosida asar kompozitsiyasi va syujet tiplarini, obraz va xarakter yaratish usullarini, qahramon psixologiyasini ochib berishdagi o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish orqali mahoratga erishish yo'llarini aniqlash;

---

– Т., 2020; Расулова У. XX аср ўзбек киссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари): Филол. фан. д-ри (DSc). ... дис. автореф. – Т., 2020.

<sup>7</sup> Есемуратов Г. Уллы ўатандарлық урыстан соңғы қарақалпақ совет әдебиятында аўыл адамлары образы (1945-1960). – Нөкис: Қарақалпақстан, 1963. – 138 б.; Нурмухамедов М. Қарақалпақская советская проза. – Т.: ФАН, 1968. – 311 с.; О'ша муаллиф. Шығармалары. 2-т. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1985. – 310 б.; Нарымбетов Ж. Қарақалпақский роман. – Т.: ФАН, 1974. – 128 с.; Қожықбаев Ә. Қарақалпақ романы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1977. – 220 б.; Камалов Қ. Қарақалпақ повести (жанрдың эволюциясы). – Нөкис: Қарақалпақстан, 1978. – 108 б.; О'ша муаллиф. Дала бүркити. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1990. – 181 б.; Баҳадырова С. Роман ҳәм дәўир. – Нукус: Қарақалпақстан, 1978. – 166 б.; Султанов Қ. Т.Қайыпбергеновтың прозасы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1979. – 73 б.; Есенов Ж. Шеберликтің сырлары. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1986. – 100 б.; Өтемуратова Х. Қарақалпақ тарийхый романының поэтикасы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1997. – 71 б.; Бекбергенова З. Қарақалпақ романларында көркем сөз поэтикасы (1980 – 2010-жыллар). – Нөкис: Илим, 2016. – 205 б.; Алламбергенов К. Кең дүньяға кушақ ашқан жазыўшы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2019. – 34 б.; Нуржанов П. Қарақалпақ романи поэтикаси (сюжет ва композиция) (1970-2000 йй.): Филол. фан. д-ри (DSc). ... дис. автореф. – Нукус, 2020. – 68 б.; Сағыйдуллаева Ж. Қарақалпақ повестьлеринде стильлик изленислер (1980-жыллар). – Нөкис: Қарақалпақстан, 2020. – 120 б.; Алламуратова З. Қарақалпақ прозасында детектив жанрдың қәлиплесиўи ҳәм раўажланыў эволюциясы: Филол. илим. филос. д-ры (PhD). ... дис. – Нөкис, 2020. – 109 б.; Ктайбекова З. Ғәрезсизлик дәўири қарақалпақ гүрриндериниң поэтикасы: Филол. илим. филос. д-ры (PhD). ... дис. – Нөкис, 2021. – 163 б.

yozuvchi povestlaridagi voqealar bayoni, ifoda uslubi, xalq tili, soʻz tanlash, badiiy detaldan foydalanish mahoratini nazariy asosda tadqiq qilish orqali muallifning boshqa ijodkorlarga oʻxshamagan uslubiy xususiyatlarini ochib berish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida T.Qayipbergenovning “Sekretar” 1956, “Muʻgallimga raxmet” (“Rahmat, muallim”) 1958, “Suwıq tamshı” (“Sovuq tomchi”) 1964, “Uyqısız tınler” (“Uyqusiz tunlar”) 1965, “Tánha ózińe málim sır” (“Tanho oʻzingga maʼlum sir”) 1978, “Qara dápter” (“Qora daftar”) 1992 povestlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** yozuvchi T.Qayipbergenov povestlarining gʻoyaviy-mavzuviy yoʻnalishlarini, janr rang-barangligini, syujet va kompozitsion tuzilishini, voqealar bayoni turlarini, qahramon xarakterini yaratishda, badiiy til, soʻz tanlashdagi va har xil detallardan foydalanishdagi individual uslubiy xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, badiiy-estetik, struktural va ruhiy (psixologik) tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

jahon va turkiy xalqlar adabiyotshunosligida badiiy mahorat masalasiga oid tadqiqotlardagi ilmiy-nazariy asoslariga tayangan holda, yozuvchi T.Qayipbergenovning povest yaratishdagi oʻziga xos, individual xususiyatlari ochib berilgan;

yozuvchi povestlarining janr va shakliy oʻziga xosliklari (epik, liro-epik, liro-psixologik turlari), syujet tiplarini yaratishdagi (xronikal, konsentrik, retrospektiv, assotsiativ syujet) oʻziga xosligi va asar kompozitsiyasidagi (halqasimon, parallel, izchil) poetik izlanishlari orqali asoslangan;

povestlar kompozitsiyasida asar qahramonlar xotiralari (retrospektiv), xat, kundalik daftar, dialog, monolog kabi badiiy nutq shakllaridan foydalanishdagi ijodiy individualligi, XX asrdagi qoraqalpoq nasridagi psixologik tasvir imkoniyatlarini olib kelishdagi novatorligi kontekst misollarida aniqlanib, ilmiy-nazariy asosda tahlil qilingan;

obrazlar tizimi, xarakter yaratish, personajlar psixologiyasi, mavzuga atama tanlash, jonli xalq tilining boy leksikasidan foydalanish, detal va bayon turlarini ifodalash kabi unsurlarning asar yaxlitligini taʼminlashdagi va yozuvchi mahoratini aniqlashdagi muhim poetik mezon ekanligi, adibning ularni qoʻllashdagi individual mahorati ochib berilgan va badiiy-uslubiy izlanishlari aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari:**

T.Qayipbergenov povestlaridagi mahorat masalasini tahlil qilish borasida chiqarilgan xulosalardan qoraqalpoq adabiyotshunosligi uchun katta ahamiyatga ega ilmiy-nazariy maʼlumotlarni boyitish orqali qoraqalpoq nasrining rijovlanishiga oid tadqiqotlar yaratishda manba sifatida xizmat qilishi asoslangan;

yozuvchi asarlaridagi gʻoyaviy-mavzuviy yoʻnalishlar, janr va shakliy izlanishlar, bayon ifodasi va tasviriy usullari poetik mahoratga asos boʻlgani va povestlardagi badiiy jihatdan semantik-struktural tahlil asnosida kompozitsion va syujet tiplarining aniqligi isbotlangan;

povestlarga sarlavha nom tanlashda, qahramon psixologiyasini ochishda, obraz va xarakter yaratishda, badiiy detal, bayon qilish turlari, xotiralar, xat, kundalik daftar, dialog, monolog kabi usullardan foydalanish mahorati muallifning individual xususiyati sifatida ko'rsatib berilgan;

muallif tomonidan povestlarining badiiyligini ta'minlashda qo'llanilgan janr va shakliy izlanishlar, badiiy tasviriy usullari zamonaviy qoraqalpoq nasrida yangi yo'nalishlarning shakllanishi va rivojlanishiga asos yaratganligi dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** unda qo'llanilgan yondashishlar va usullar, foydalanilgan adabiy-nazariy ma'lumotlarning ishonchliligi ilmiy va badiiy manbalardan olinganligi, ilmiy xulosalar qiyosiy-tipologik, badiiy-estetik, struktural va ruhiy (psixologik) tahlil usullariga asoslanganligi, nazariy qarashlar va tavsiyalarning amaliyotda keng qo'llanilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, qoraqalpoq povestlarida badiiy mahorat masalasi bo'yicha erishilgan ilmiy-nazariy qarashlarni to'ldirishda, kelgusida adabiy janr, badiiy obraz, asar kompozitsiyasi, yozuvchining uslubini o'rganishda ilmiy manba sifatida xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishda tavsiya qilingan tadqiqot materiallari va natijalaridan oliy o'quv yurtlarida ta'lim tizimi samaradorligini oshirishda, ayniqsa, "Qoraqalpoq adabiyoti tarixi", "Adabiyot nazariyasi", "Hozirgi adabiy jarayon", "Mustaqillik davr qoraqalpoq adabiyoti" fanlaridan darslik, o'quv qo'llanmalar yaratishda hamda, yozuvchilar ijodi bo'yicha seminar va maxsus kurslar tashkillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** T.Qayipbergenov povestlaridagi badiiy mahorat masalasini tadqiq qilish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

yo'nalishlarining taraqqiyot tendensiyalari, janr va shakliy o'ziga xosligi, syujet va kompozitsiya tuzish, obraz va xarakter yaratish xususiyatlari, bayon qilish turlari, badiiy til va detaldan foydalanish mahorati bo'yicha individual izlanishlari borasidagi nazariy xulosalaridan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi, Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan 2021 – 2023-yillari bajarilgan "Qoraqalpoq yozuvchilarining ijodiy laboratoriyasini monografik aspektda tahlil qilish" mavzusidagi fundamental loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi, Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 5-avgust 314/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, yozuvchi povestlaridagi badiiy mahorat masalasi, asar syujeti va kompozitsion yaxlitligi, janr va badiiy xususiyatlari, g'oyaviy-mavzuviy yo'nalishlarini belgilashda asosiy manba vazifasini bajargan;

badiiy so'z ustasining povest yaratishdagi poetik izlanishlari, asarlarining g'oyaviy-mavzuviy yo'nalishlari, syujet va kompozitsion tarkibi, obraz va xarakter yaratishdagi individual alohida farqli belgilarini tahlil qilish bo'yicha olingan

ilmiy-amaliy natijalaridan Qoraqalpog‘iston teleradiokompaniyasining “Adabiyot bo‘stoni”, “Adabiy portret”, “Adabiyot va davr”, “Meros” madaniy-ma’rifiy eshittirishlari hamda “Assalomu alaykum, Qoraqalpog‘iston!”, “So‘z gavhari” ko‘rsatuvlarida foydalanilgan (Qoraqalpaqstan Teleradiokompaniyasining 2024-yil 22-apreldagi 05-22/198-son ma’limotnomasi). Natijada, qoraqalpoq adabiyotida yozuvchi T.Qayipbergenov povestlarining rivojlanish tendensiyalari, asarlaridagi obraz va xarakter, syujet va kompozitsiya tuzishdagi ijodiy izlanishlarini hamda bayon qilish turlari va jonli xalq tili, so‘z tanlash va detallardan foydalanishdagi mahorat masalalari keng jamoatchilikga yetkazilishi ta’minlangan.

T.Qayipbergenov povestlaridagi badiiy mahorat masalasini tahlil qilishda yozuvchining individual uslubiy izlanishlari va ijodiy novatorligi haqida ma’ruzalari yosh shoir-yozuvchilarning adabiyotimiz darg‘alari ijodini teran o‘rgatish hamda poetik mahoratini takomillashtirishda keng foydalanilgan. (Qoraqalpog‘iston Yozuvchilar uyushmasining 2024-yil 3-maydagi 44-son ma’lumotnomasi). Natijada, yosh ijodkorlarning yozuvchi T.Qayipbergenov povestlaridagi g‘oyaviy-mavzuviy yo‘nalishlarini, janr va badiiy izlanishlarini aniqlashga, asarlarining syujet tiplari va kompozitsion tuzilishini, individual ijodiy mahoratini rivojlantirish masalalari bo‘yicha tushunchalarini takomillashtirishga erishilgan;

yo‘zuvchining hayoti va ijodi, qo‘lyozmalari, nashr etilgan kitoblari, asarlarining g‘oyaviy-mavzusi, obrazlar dunyosi, syujet va kompozitsiyasi, bayon qilish mahorati, badiiy tasviriy usullarni foydalanishdagi uslubiy izlanishlari bo‘yicha olingan ilmiy-nazariy xulosalaridan Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyida T.Qayipbergenov ijodiga oid ko‘rgazmalar tashkillashtirishda hamda muzey eksponatlarini boyitishda zarur manba sifatida foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyining 2024-yil 22-apreldagi 137-son ma’lumotnomasi). Natijada, muzey ekspozitsiyasida yozuvchining qoraqalpoq adabiyotida tutgan o‘rni, povestlarining tadqiq qilinishi, g‘oyaviy-tematikasi, janr xususiyatlari, obraz yaratishdagi individual mahorati, syujet tiplari va kompozitsion birliklarning badiiy-estetik ahamiyati, bayon qilish turlari va asar tilidagi poetik izlanishlarini yoritib berishga muayyan sharoit yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari jami 10 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 7 ta xalqaro va 3 ta respublika anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 22 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, shundan, 10 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 153 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiyaning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib berilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarining ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi va hajmi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“T.Qayipbergenov povestlarining o'rganilishi va badiiy mahorat muammosi”** deb nomlangan birinchi bob ikki fasldan iborat. Bobning birinchi fasli **“Badiiy mahorat masalasini o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan bo'lib, unda badiiy mahorat muammosining nazariy asoslari, jahon va turkiy xalqlar adabiyotshunosligida tadqiq etilishi yuzasidan bildirilgan fikrlar, metodologik asosga ega bo'lgan ilmiy yondashuvlar keng tahlil qilindi.

Har bir ijodkor asarlarida tasvirlangan badiiy voqelik hayotiy haqiqatlar zamirida aks ettiriladi. Ijodkor hayot haqiqatini badiiy haqiqatga mutanosiblashtirgan sari, asar voqealarining jamiyatga ta'siri hamda nazariy va estetik kuch-qudrati ortib boradi. Badiiy mukammal asar o'zining g'oyaviy-emotsional ta'sirchanligi bilan kitobxonga zavq bag'ishlaydi. Taniqli o'zbek yozuvchisi A.Qahhor e'tirof etganidek, “chiroyli iboralar, chiroyli ifodalar, antiqa voqealar, kulgili va qayg'uli holatlar topish emas, balki xalqqa aytadigan zarur so'zimizni kitobxonning qalbiga olib kiradigan obrazlar yaratish”<sup>8</sup>.

Ijodiy faoliyat kuzatish, idrok etish, his qilish, xotirada saqlashdan boshlanadi. Demak, ijodkor iste'dodli, mohir bo'lsa, u yaratgan asarlar har bir davr uchun bebaho xazinaga aylanadi. Zero, “Mahorat – hayot haqiqatini badiiy talqin qilish san'ati. Yuksak mahorat, qahramon ichki olamini butun murakkabligi bilan har tomonlama tasvirlash imkoniyatini vujudga keltiradi”<sup>9</sup>. Badiiy asar yaratishda ijodkordan hayotiy haqiqatlarni aniq anglab yetish talab qilinadi. Voqealarni ifodalash, asar qahramonlari taqdirini obrazli aks ettirish, o'z qalb kechinmalarini badiiy talqin qilish, albatta, ijodkordan kuchli zehn, erkin fikr, so'zga badiiy ma'no yuklash mahoratiga ega bo'lishni taqozo etadi. Shu ma'noda, “yozuvchining mahorati shundaki, har bir yangi asar uchun yangicha talqinlar bunyod bo'lishi lozim. Negaki, har gal uning oldida yangicha hayotiy materiallar, yangi ijodiy muammolar gavdalanadi. Hunarmand jonsiz materialdan sovuq bir buyum yasasa, yozuvchi qaynoq fikr va g'oyalar asosida jonli hayot yaratishi lozim. Badiiy mahoratning kaliti ham aynan tasvirlangan obrazlarga jon baxsh eta olishida”<sup>10</sup> ko'rinadi.

Har bir so'z san'atkori ijodida teran hayotiy tajriba, kishini o'ziga rom etadigan o'y-fikrlar, his-tuyg'ular, yuksak fazilatlar shakllansagina betakror asar

<sup>8</sup> Қаҳҳор А. Асарлар. Олти томлик. 6-т. – Тошкент: Фафур Фулом, 1971. – Б. 411.

<sup>9</sup> Константин Федин. Маҳорат ҳақида (С.Анорбоев таржимаси) // Бадий ижод ҳақида. – Т.: ЎзССР давлат бадий адабиёт нашриёти, 1960. – Б. 141.

<sup>10</sup> Кодиров П. Маҳоратнинг «калити» // Бадий ижод ҳақида. – Т.: ЎзССР давлат бадий адабиёт нашриёти, 1960. – Б. 169-170.

yaraladi. Ijodkor xalq hayoti, turmush tarzi, inson taqdirini o‘z qalb kechinmalaridan o‘tkazib tasvirlagandagina yaratilgan asar badiiy mohiyati teran mazmun kasb etadi. Zero, badiiylik shartlaridan bir sifatida, qahramonlarning ichki ruhiy olamini aniq aks ettirish orqali kitobxon qalbidagi yangidan-yangi, betakror obrazlar yaratish bilan bir qatorda ularga estetik zavq ulashishi anglashiladi. Adabiyotshunos olim, Izzat Sulton ta’kidlaganidek, “Badiiylikning asosiy mezonlari – obrazli tafakkur orqali ifodalangan haqqoniylik, oliyjanoblik, shakl va mazmun mutanosibligi hamda badiiy til”<sup>11</sup>. Badiiylikning mazkur mezonlari adabiyotning barcha janrlariga tegishli bo‘lib, muayyan janr tabiatiga xos va mos tarzda ifodalanadi. Shu ma’noda, badiiy so‘z san’atkorining adabiyotning janr va shakllari yuzasidan teran bilimga ega bo‘lishi lozim. Bu esa, unga ijodkorga muvaffaqiyat olib keladi. Demak, har qanday asarning badiiyati o‘quvchining his-tuyg‘ulariga ta’sir o‘tkazib, uni insoniy fazilatlar sohibiga aylantiradi. Ijodkor mahorati o‘ziga xos fikr, tasvirlanayotgan predmet va ruhiy holatni aniq namoyon eta bilishi, so‘z qudratidan samarali foydalana olishida ko‘rinadi. Yozuvchi tasavvurida ajib tuyg‘ular aks etib, lekin ular o‘quvchi qalbiga yetib borgulik badiiy ifodaga ega, asar tili jozibador bo‘lmasa, har qanday asar ma’naviy kuchga aylanmaydi. Ta’kidlash kerakki, asarda shakl va mazmun mutanosibligi saqlanishi lozim. Shuningdek, badiiylikning asosiy belgilaridan biri – bu haqqoniylik sanaladi. Negaki, ijodkor hayotni chin ma’noda real tasvirlay olsagina, asar badiiyati ta’minlanadi.

Jahon adabiyotshunosligida alohida ijodkor badiiy mahoratini tadqiq etish ancha oldin vujudga kelgan. M.Soyfer o‘z tadqiqotlarida, M.Sholoxov ijodiy mahoratini o‘rgangan holda: “muallif asarlari oddiy ifodaga ega. Uning mahorati voqealarning yorqin ifodasi – qahramonlarning tavba-tazarrusi, turmush tashvishlarining ikir-chikirlarigacha namoyon etilishida”<sup>12</sup>, – deya ta’kidlaydi. Darhaqiqat, adib asarlari shakli qahramonlar dunyosiga kirib borish imkonini beradi. O‘zbek adabiyotshunosligida esa olim M.Qo‘shjanov, yozuvchi – Oybek badiiy mahorati xususida “Yozuvchi o‘zining ijodiy an’analariga urush yillarida ham amal qiladi. U urushning bir xil ifodasi shaklidan chekingan holda, aksariyat, konkret xarakterlar, urush oqibatida insonlar xotirasi va psixologiyasida sodir bo‘lgan ahamiyatli omillar bilan qiziqdi”<sup>13</sup>, – deya munosabat bildiradi. Inson ichki ruhiy olami, jonli hayotiy lavhalarini tasvirlash borasida yozuvchi turmushdagi har bir detalni puxta o‘rganishi, eng mayda tafsilotlarni ham nazardan qochirmasligi lozim. Negaki, eng kichik detallar yordamida jamiyat hayotida ahamiyatli bo‘lgan katta g‘oyalar va muammolar haqida so‘z yuritilib, badiiy talqin etiladi. Adabiyotshunos U.To‘ychiyev badiiylik mezonlarining besh turini ta’kidlab: “Iste’dod, adabiyotning spesifikasi (o‘ziga xosligi), an’anaviylik hamda zamonaviylik, mahorat va ta’sirchanlik”<sup>14</sup> – deya etirof etgan edi. Iste’dodli

<sup>11</sup> Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – T.: Ўқитувчи, 1986. – Б. 236.

<sup>12</sup> Соифер М. Мастерство Шолохова. – Т.: Изд-во литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1976. – Б. 307.

<sup>13</sup> Қўшжанов М. Ойбек маҳорати. – Т.: Бадий адабиёт нашриёти, 1965. – Б. 223.

<sup>14</sup> Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Т.: Янги аср авлоди, 2011. – Б. 11.

yozuvchi hayotiy kuzatuv orqali turmush lavhalarini qalban his qilgan holda tinimsiz izlanishlar natijasida badiiy mahoratga erishadi. Zero, har qanday asarda ijodkor badiiy niyati, hayotga nisbatan munosabati aks etadi.

Birinchi bobning **“T.Qayipbergenov povestlarining g‘oyaviy-mavzuviy, janr va shakliy jihatdan tadqiq yo‘nalishlari”** deb nomlangan ikkinchi faslida qoraqalpoq adabiyotshunosligida T.Qayipbergenov povestlarining g‘oyaviy-mavzuviy jihatdan rang-barangligi, janr va shakliy o‘ziga xosligi, asarlari badiiyati xususida mutaxassis olimlarning munosabatlari tadqiq etildi.

Yozuvchi asarlari yuzasidan akademik M.Nurmuxamedov “Sekretar” povesti “yozuvchining yirik janrdagi ilk tajribasi bo‘lgani boisdan unda qator yetishmovchiliklar mavjudligi, soxta va sxematizm o‘rin olgan”ligini tanqid qilsa, “ikkinchi “Rahmat, muallim” povestini g‘oyaviy-badiiy saviya jihatidan shakllangan asarlar sirasiga qo‘shsa bo‘ladi. Yozuvchining badiiy tasvir usullaridan mohirona foydalanishi natijasida, asarning har bo‘limi, sahifasida yangilik, haqiqat va harakatchanlik sezilib turadi” – deya yuksak baho beradi<sup>15</sup>. Darhaqiqat, olim e’tirof etganidek, T.Qayipbergenovning nasriy janrlarga porlab kirib kelishi o‘tgan asrning 1950-yillariga to‘g‘ri keladi.

Qoraqalpoq adabiyotida 1970-yillargacha povest janrini maxsus o‘rgangan olim Q.Kamalov o‘z tadqiqotlarida T.Qayipbergenovning “Sekretar”, “Rahmat, muallim”, “Sovuq tomchi”, “Uyqusiz tunlar” va “Tanho o‘zingga ma’lum sir” asarlarini tahlil qilarkan, “adabiyotimizda povest janri bo‘yicha ishlash tajribasi kamligi, qolaversa, epik nasrdagi ilk qadami bo‘lganligi bois asarda kamchiliklar bo‘lishi tabiiy”<sup>16</sup>, – deya to‘g‘ri ta’kidlagan edi. Shunday bo‘lsa ham, olim bu povestni yirik epik syujetida yosh bola – Atamuratning urush davridagi mardonavor ishlari mohirona tasvirlanganligiga ijobiy baho beradi. Haqiqatan ham, asar qahramoni o‘z davri yoshlariga namuna darajasidagi xulq-atvorga egaligi, front ortidagi ishlari bilan alohida ko‘zga tashlanadi.

Adabiyotshunos J.Esenov “Sheberliktiñ sirlari” tadqiqotida T.Qayipbergenovning “Rahmat, muallim” hamda Ch.Aytmatovning “Birinchi muallim” povestlari xususida so‘z yuritar ekan, ikki yirik yozuvchining bir-biridan ijodiy ta’sirlanganligi, qolaversa, bu muayyan davr talabi bo‘lganligi sababli ijodkorlar ayni shu mavzuda asarlar yaratgan” – degan xulosaga keladi<sup>17</sup>. Bugungi kunda qoraqalpoq povestlarini tadqiqiga bag‘ishlangan ishlar ko‘p emas. Shunday bo‘lsa-da, nasriy asarlarni tadqiq qilgan olimlar, yozuvchilar ijodida roman janriga qo‘l urushdan oldin ularga povest janri tajriba maktabi sifatida hikoya bilan roman o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajarlanligini e’tirof etadilar. Professor Q.Orazimbetov esa, “1960-yillar o‘rtalarida yaratilgan “Sovuq tomchi”, “Uyqusiz tunlar” povestlari adabiy jarayonda alohida hodisa bo‘ldi. O‘sh davr siyosati uchun inson taqdiri jamiyat manfaati oldida hech narsa emas edi. Yozuvchi ayni shu fikrga keskin qarshi munosabat bildirishda o‘zida kuch topdi. Birinchidan, urushdagi sotqinlik hamma joyda qoralanib turgan bir paytda yozuvchi Kamol obrazini

<sup>15</sup> Нурмухамедов М. Шығармалары. 2-т. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1985. – Б. 310-311.

<sup>16</sup> Камалов Қ, Қарақалпақ повести (жанрдың эволюциясы). – Нөкис: Қарақалпақстан, 1978. – Б. 56.

<sup>17</sup> Есенов Ж. Шеберликтің сырлары. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1986. – 34 б.

yaratib, shu orqali muayyan darajada mavjud qarashlarni inkor etdi. Ikkinchidan, Kamol otasi uchun, onasi esa, eri uchun naqadar kamsitilganligini tasvirlash orqali davr siyosati, mafkurasining g‘ayriinsoniy mezonlarga asoslanganligini ochiq aks ettirdi. Ammo, yozuvchi buni mohirona ifodalaydiki, o‘sha davr sinchkov mafkurasi uni anglamay qoldi”<sup>18</sup>, – deya to‘g‘ri ta’kidlaydi.

O‘zbek adabiyotshunosi U.Rasulova o‘z tadqiqotlarida: “O‘zbek qissalarining hayotni qamrab olish ko‘lami, voqelikni tasvirlash usuliga ko‘ra ma’lum xillari mavjud. Badiiy ijod jarayonida qissa poetikasida salmoqli o‘zgarishlar ro‘y bergan, ya’ni u takomillashib rang-barang tus olgan. Uning ichki xillarga bo‘linishi janr imkoniyatini teran anglashni taqozo etadi. Qissaning bunday ichki xillarga bo‘linishi poetik usul va vositalarning o‘zgarishi, g‘oyaviy mazmuniy xususiyatlarning yangilanishi bilan bog‘liq”<sup>19</sup>, – deya fikr bildirib, qissalarni bir necha tematikaga ajratish zarurligini ta’kidlagan holda ularni “tarixiy, zamonaviy, fantastik, detektiv, satirik, hujjatli, biografik” bo‘lib o‘rganishni tasviya qiladi.

Mustaqillik davri qoraqalpoq hikoyalarini tadqiq qilgan Z.Ktaybekova ta’kidlashicha: “Qoraqalpoq nasrida hozirgi davrning dolzarb muammolari tasviriga bag‘ishlangan asarlar, ayniqsa, hozirjavob janr bo‘lgan hikoyalarning g‘oyaviy-mavzuviy jihatdan taraqqiy etganligini kuzatish mumkin”<sup>20</sup>. Olima, shu asosda qoraqalpoq hikoyalarini 7 xil mavzuga ajratgan holda o‘rganadi. Shu nuqtayi nazardan yozuvchi T.Qayipbergenov povestlarini quyidagi tematika asosida o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi. 1. Urush yillari qishloq hayoti hamda xalqimiz va yoshlar turmush tarzi tasviriga bag‘ishlangan (“Sekretar”). 2. Ta’lim-tarbiya va ma’rifiy ahamiyatga ega (“Rahmat, muallim”). 3. Urushning fojiviy oqibatlarini tasviri aks etgan (“Sovuq tomchi”, “Uyqusiz tunlar”). 4. Ishq-muhabbat mavzusiga bag‘ishlangan (“Tanho o‘zingga ma’lum sir”, “Qora daftar”) povestlari.

T.Qayipbergenovning urush yillardagi qishloq yoshlari hayotiga bag‘ishlangan “Sekretar” povesti ikkinchi jahon urushi davridagi qishloq bolalarining front ortidagi xizmatlari, xalq uchun kattalar bilan teng mehnat qilishi badiiy talqin qilingan. “Rahmat, muallim” povesti g‘oyaviy tematikasi orqali XX asrning dastlabki choragida yoshlarga bilim berishga harakat qilgan muallimning fidokorona xizmatlarini har tomonlama yoritishga intilgan. Yozuvchining “Sovuq tomchi”, “Uyqusiz tunlar” povestlari ikkinchi jahon urushi va undan keyingi davrlarda urush oqibatlarining insoniyatga ko‘rsatgan salbiy ta’sirini Kamol va Gulzorlarning lirizm va fojialarga to‘la hayoti tasviriga bag‘ishlangan. “Tanho o‘zingga ma’lum sir” , “Qora daftar” povestlarida yoshlarning ishq tuyg‘ulari, muhabbatga to‘la qalb iztiroblari psixologik yo‘sinda yoritilgan. Xususan, “Tanho o‘zingga ma’lum sir” asarida Polvon bilan Perixonning bir-biriga bo‘lgan muhabbati, talpinishi, shirin xayollari shunday tasvirlanadi: “ikki yoshning bolalikdan paydo bo‘lgan birinchi muhabbati o‘zlari uchun hech takrorlanmas, ulargacha hech kimda kechmagan ishq-muhabbat

<sup>18</sup> Оразымбетов Қ. Эдебиат майданындағы ири тулға // Еркин Қарақалпақстан. 7-май. – Нөкис, 2009.

<sup>19</sup> Расулова У. XX аср ўзбек қиссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари): Филол. фан. д-ри. (DSc). ... дис. – Тошкент, 1994. – Б.47.

<sup>20</sup> Ктайбекова З. Ғарезсизлик дэўири қарақалпақ гүрриндлерининг поэтикасы: Филол. илим. филос. д-ры. (PhD). ... дис. – Нөкис, 2021. – Б. 12.

namoyon bo‘lib, bir-biridan ko‘z uzmay uzoq termulib tursa-da, alal-oqibat ikkisi ham ko‘m-ko‘k maysa ustiga yiqilganini sezmad... So‘ngra ular o‘zaro uzoq oh-u zor chekishib, bir-birisiz kun kechirolmashligini ta‘kidlashdi... Kun botishga moyilligini ham anglamadilar”<sup>21</sup>.

“Qora daftar” povestida yozuvchi Oysha bilan Embergenning muhabbatga to‘la qalb kechinmalarini teran lirizm asosida tasvirlaydi: “... Kelasi kun men uchun baxtli kun bo‘ldi. Sen shu skameykada meni kutib o‘tirgan ekansan. Meni olisdan ko‘rishing bilan ko‘zlaring javdirab, quvonchdan miyig‘ida jilmayib, o‘rningdan turigan holda yoningga o‘tirishga taklif etding”<sup>22</sup>. Adabiyotshunos P.Nurjanov “Hozirgi davrga kelib qoraqalpoq povestlarida harbiy, dedektiv, liropsixologik, memuar, avtobiografik, tarixiy, fantastik, mistik kabi shakllar”<sup>23</sup> vujudga kelganligini ta‘kidlaydi. Shu asosda T.Qayipbergenov povestlarini janr va shakliy o‘ziga xosliklari, badiiy ifoda usullariga ko‘ra, epik, liro-epik hamda liropsixologik turlarga ajratgan holda o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Professor Q.Kamalov qoraqalpoq povestlari yuzasidan qilgan tadqiqotlarida e’tirof etadiki: “T.Qayipbergenovning “Sekretar” asari urush yillarida maktab o‘quvchilari hayotini epik planda tasvirlagan adabiyotimizdagi birinchi yirik nasr namunasi bo‘ldi”<sup>24</sup>, – deya munosabat bildiradi. Adabiyotshunoslarning qarashlariga tayangan holda biz ham o‘z tadqiqotimizda yozuvchi povestlarini: “Sekretar” – epik, “Rahmat, muallim” – liro-epik, “Sovuq tomchi”, “Uyqusiz tunlar”, “Tanho o‘zingga ma‘lum sir” va “Qora daftar” – liropsixologik usulda yozilgan asarlardir, degan xulosaga keldik.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**T.Qayipbergenov povestlarida syujet, kompozitsiya va obraz yaratish mahorati**” deb nomlanadi. Bobning birinchi faslida “**T.Qayipbergenov povestlarida syujet tiplari**” masalasi tahlil qilindi.

Badiiy asarda hayotiy voqealar tasviri ifodasiga ko‘ra turli xil syujet tiplari qo‘llanilishi ma‘lum. Mazkur masala, ya‘ni syujet tiplari, ularning o‘ziga xosligi yuzasidan adabiyotshunos olimlar tomonidan turli xil fikr-mulohazalar bildirilgan. Xususan, o‘zbek adabiyotshunosligida A.Rahimov syujetning xronikal, konsentrik, retrospektiv, assotsiativ kabi tiplarini alohida qayd etgan holda o‘zbek romanlari misolida tahlil qiladi<sup>25</sup>. Qoraqalpoq adabiyotshunosligida esa Z.Ktaybekova mustaqillik davri hikoyachiligida asosan uch xil: xronikal, konsentrik, retrospektiv syujet tiplari qo‘llanilganligini asoslab beradi<sup>26</sup>. Ammo, qoraqalpoq povestlarida syujet tiplari borasida maxsus tadqiqot mavjud emas. Shu ma‘noda, mazkur janrni T.Qayipbergenov ijodi misolida o‘rganish va unda ijodkor mahorati, individual xususiyatlari yuzasidan tegishli ilmiy xulosalar chiqarish adabiyotshunosligimizning zarur masalalaridan hisoblanadi.

<sup>21</sup> Қайыпбергенев Т. Тэнха өзине мәлим сыр. Повестлер. – Нөкис: Билим, 2018. – Б. 206.

<sup>22</sup> Қайыпбергенев Т. Қара дәптер. Тэнха өзине мәлим сыр. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1992. – Б. 128.

<sup>23</sup> Нуржанов П. Хэзирги қарақалпақ повестин изертлеўдиң айырым мәселелери // Әдебият ҳаққында ойлар. – Нөкис: Билим, 2023. – Б. 218.

<sup>24</sup> Камалов Қ. Қарақалпақ повести (жанрдың эволюциясы). – Нөкис: Қарақалпақстан, 1978. – Б. 55.

<sup>25</sup> Раҳимов А. Ўзбек романи поэтикаси (сюжет ва конфликт): Филол. фан. д-ри. дис. ... автореф. – Т., 1993. – Б.12.

<sup>26</sup> Ктайбекова З. Ғәрезсизлик дәўири қарақалпақ гүрринлериниң поэтикасы: Филол. илим. филос. д-ры. (PhD). ... дис. – Нөкис, 2021. – Б. 69.

T.Qayipbergenov povestlarini kuzatar ekanmiz, unda jamiyat hayotining badiiy talqin etish uslubiga ko‘ra, “Sekretar”, “Rahmat, muallim” – xronikal; “Sovuq tomchi”, “Uyqusiz tunlar” – konsentrik; “Tanho o‘zingga ma’lum sir” – retrospektiv; “Qora daftar” – assotsiativ syujetga asoslanganligini ko‘rish mumkin.

Yozuvchining “Sekretar” povestida ikkinchi jahon urushi davri maktab o‘quvchilari hayoti epik bayon etilgan. Asar voqealari bosh qahramon – Atamurod atrofida qurilgan. Povest syujeti qahraton qishda frontga otlangan otalarini shahargacha kuzatib qaytayotgan uch bolaning qishloqqa qaytib kelayotgan paytidan boshlanadi. Asarda urush davridagi qishloq va maktab o‘quvchilari hayoti xronikal syujet asosida tasvirlanadi. Yozuvchi ikkinchi jahon urushi yillarida o‘z ishiga fidoyi, mehnatkash va mard insonlar bilan bir qatorda, qo‘rqoq va qochoq odamlar bo‘lgani hamda ularning ichki kechinmalari bilan birga insonga xos bo‘lmagan, nafratomuz xatti-harakatlarni mohirona tasvirlaydi.

“Rahmat, muallim” povesti ham xronikal syujet asosiga qurilgan. Asar nomidan ko‘rinib turganidek, u ta’lim-tarbiya masalasiga bag‘ishlangan. Unda yangi tuzum maktablarining vujudga kelishi, Qoraqalpog‘istondagi ta’limning tashkil etilishi, o‘qitishning yangi usullari, xalqimizni savodxonlikka undovchi, yurtimizga ilk o‘qituvchining kelishi hamda bolalarga ta’lim berishdagi fidoyiligi kabi voqealar asosida xronologik izchillikda obrazli ifodalangan.

Konsentrik syujetda voqealar sabab-oqibat tarzida bir markazga jamlangan holda bayon etiladi. T.Qayipbergenovning “Sovuq tomchi”, “Uyqusiz tunlar” kabi povestlarida syujet voqealari bir asosiy voqea atrofida jamlanishi bilan xarakterlanadi. Syujetning mazkur turi voqealar konflikt asosida jadal rivojlangan holda yechimini topishi talab etiladi. Konsentrik syujet qisqa vaqt mobaynida yuz bergan hodisalar tasviriga ega bo‘lib, unga yordamchi syujet chiziqlarini kiritish imkoniyati oz ekanligi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Asar voqealari o‘tkir va murakkab konflikt asosida tasvirlanadi. Ta’kidlash kerakki, bunday asarlarda hayotiy hodisalar bilan bir qatorda qahramonlar xarakteri teran talqin etilgan holda ziddiyatli voqealar, qahramonlar taqdiri kuchli dramatism orqali ifodalanadi. Xususan, “Sovuq tomchi” povesti hikoyachi (qahramon) – Kamolning hammomda yozuvchi bilan uchrashuvi epizodidan boshlanadi. Asar prologida Kamol muallif bilan hammomda tanishadi. Muallif uni harbiy kazarmagacha kuzatib qo‘yadi. Kamol esa unga o‘z hayoti haqida yozgan kundalik daftarini beradi. Kamol bergan juft kundalik daftarda asar qahramonining xarakter xususiyatlar aks etadi. Bundan tashqari, “Uyqusiz tunlar” povesti ham konsentrik syujet asosiga qurilgan. Asar voqealari urushda ota-onasidan ayrilib, bir ko‘zi nuqsonli bo‘lgan yetim qiz – Gulzor tilidan bayon etiladi. Asar voqealari oradan yillar o‘tgach, urush paytida o‘zini o‘limdan asrab qolgan qoraqalpoq askarini izlashi, turli qiyinchiliklarni yengib o‘tishdagi kurashlari fonida yuz beradi. Voqealar epizodlararo rivojlanib, shu jarayonda Gulzor xarakteri shakllanib boradi.

Ma’lumki, “Retrospeksiya adabiy usul sifatida katta rol o‘ynaydi. U o‘tmish va keyingi davr orasidagi aloqani ta’minlaydi”<sup>27</sup>. T.Qayipbergenovning “Tanho

---

<sup>27</sup> Фуломов Д. Ретроспектив сюжет хусусида айрим мулоҳазалар // FarDU Ilimiy xabarlar. – Фарғона, 2021. - №4. – Б. 130.

o‘zingga ma‘lum sir” povesti, aynan, retrospektiv syujet asosida ifodalangan. Asarda o‘z qizi Svetlananing to‘yiga kelgan Perixonning ichki monologlari, bir kecha ichida qalbida kechgan o‘y-xayollar va tasavvurlari aks ettiriladi.

Adabiyotshunos T.Boboyev ta‘kidlaydiki: “Badiiy asarda assotsiativ syujet tipi ham ko‘zga tashlanadi. Unda badiiy syujet sof assotsiatsiya asosiga qurilgan holda voqea-hodisalar rivojlanishi emas, balki qahramonlar qalb-shuurida yuz berayotgan ruhiy kechinmalarni vujudga keltiradi. Adabiy asar syujetining bu turi “assotsiativ syujet” deb yuritiladi”<sup>28</sup>. Bu xil syujetda xotira va izohlarga keng o‘rin beriladi. Roviylar vazifasi personajga yuklangan holda muallif tinglovchiga aylanadi. T.Qayipbergenovning “Qora daftar” povesti syujetida voqealarning asosli va ishonchli bayon etilishida kundaliklar, xatlarga ham muallif tomonidan o‘ziga xos badiiy funktsiya yuklanadi. Asarda roviylar vazifasini bosh qahramon – Oysha va u tomonidan yozilgan xatlar va kundaliklar bajaradi.

Ta‘kidlash kerakki, biz tahlil qilgan asarlar syujeti voqealarini bayon etish, inson taqdirini badiiy talqin qilish, qahramonlar psixologiyasini har tomonlama yoritishda muallif xronikal, konsentrik, retrospektiv va assotsiativ kabi bir nechta syujet tiplaridan mohirona foydalanish orqali ularning ruhiy olamiga teran kirib bora olgan. Natijada, yozuvchi povestlari bilan tanishgan kitobxon qalbida qahramonlar taqdiriga nisbatan katta qiziqish, zavq-shavq, keng taassurotlar paydo bo‘lishiga shubha qolmaydi.

Ikkinchi bobning **“Yozuvchi povestlarida kompozitsion izlanishlar”** masalasi tahlilga tortildi. Ijodkor badiiy asar yaratar ekan, uning kompozitsiyasida voqealarni ifoda qilmoqchi bo‘lgan mavzusi, g‘oyaviy maqsadi, badiiy niyatiga muvofiq tarzda joylashtiradi. Negaki, voqealarning to‘g‘ri tartiblashtirilishi, asar butunligining ta‘minlanishi yozuvchidan katta badiiy mahorat talab qiladi.

T.Qayipbergenov povestlarining aksariyati bir nechta bo‘limlardan tashkil topgan. Xususan, yozuvchi povestlaridan: “Sekretar” – 20, “Rahmat, muallim” – 14, “Sovuq tomchi” prolog va epilogdan tashqari – 10, “Qora daftar” – 21 bo‘limdan iborat. Mazkur asarlarning barchasida bo‘limlar raqamlar orqali ajratilgan, “Tanho o‘zingga ma‘lum sir” povesti esa, 21 bo‘limdan tashkil topgan bo‘lib, ular yulduzchalar (\*) bilan ajratilgan. “Uyqusiz tunlar” povesti kompozitsion jihatdan o‘zaro tutash tasvirlarda ifodalangan holda, asar yakunida Gulzor Qoraqalpoqovanning taqdiri to‘g‘risidagi xotima epilog sifatida keltirilgan.

Adabiyotshunos K.Hamroyev o‘zbek hikoyachiligidagi asar sarlavhalarini shartli ravishda to‘rt guruhga ajratib o‘rganganligi<sup>29</sup> tamoyiliga tayangan holda biz, T.Qayipbergenov povestlariga sarlavha tanlashdagi izlanishlarini kompozitsion tarkibidagi mahorat sifatida quyidagi guruhlarga ajratishni ma‘qul topdik: 1. Asar mazmunidan barpo bo‘luvchi sarlavhalar: a) detal sarlavha – “Qora daftar”; b) obraz sarlavha – “Sekretar”; 2. Psixologik sarlavha – “Sovuq tomchi”; 3. Ruhiy – emotsional sarlavha – “Rahmat, muallim”, “Tanho o‘zingga ma‘lum sir”; 4. Xronotop sarlavha – “Uyqusiz tunlar”.

<sup>28</sup> Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – Б. 124.

<sup>29</sup> Ҳамраев К. Ҳозирги ўзбек ҳикоясида композиция поэтикаси: Филол. фан. фалс. д-ры (PhD). ... дис. автореф. – Т., 2018. – Б. 15.

Aksariyat epik asarlar kompozitsiyasida epigraflar alohida o‘rin tutadi. U orqali biz asarni o‘qimasdanoq, asosiy g‘oyani anglab olamiz. Negaki, asar voqealarining oydinlashishida epigrafning ahamiyati katta. Istalgan nasriy asarda, xususan, povestlarda epigraf mazmuni umumlashtirish maqsadida qo‘llanilib, muallif badiiy niyatini namoyon etadi.

“Tanho o‘zingga ma‘lum sir” va “Qora daftar” povestlarida qo‘llanilgan epigraflar orqali asar mazmuniga hamda undagi voqealarga g‘oyaviy, emotsional ma‘no yuklanadi. Muallif “Tanho o‘zingga ma‘lum sir” povestida voqealarni boshlamasdan oldin ikki epigraf keltiradi: *“Tanho o‘zingga ma‘lum sir – sening quling, u ochilsa, o‘zing uning quliga aylanasan”* – degan xalq donoligidan olingan hikmatli so‘zda ta‘kidlanganidek, asar qahramoni Perixonning tanho o‘ziga ayon bo‘lgan siri uning baxtli hayotiga bir kunda nuqta qo‘yilishiga sabab bo‘ladi.

Ikkinchi epigrafda taniqli nemis adibi, Nobel mukofoti sohibi T.Manning: *“Har bir inson jumboq, insonparvarlikning asosi, ana shu jumboqqa bo‘ysunishdan iborat”* – degan so‘zlari keltiriladi. Muallif mazkur epigrafni qo‘llash orqali asar qahramoni Perixonning o‘z qizi Svetlananing kelajakdagi taqdiri uchun o‘tmishdagi jumboqli “sir”ni oshkor etmasligi to‘g‘ri yechim sifatida talqin etilgani seziladi.

Nasriy asarlar kompozitsiyasida lirik chekinishlarning tutgan o‘rni alohida. Lirik chekinish orqali asar kompozitsiyasida syujet voqealarini bayon etishdan chekingan holda muallifning ularga bo‘lgan munosabati oshkora tasvirlanadi. Shuningdek, mazkur adabiy unurning lirik kirish, lirik yakun kabi turlari ham mavjud bo‘lib, ular mazmun jihatidan lirik chekinishning aynan o‘zidir. Faqat u asarda berilgan o‘rni va u bilan bog‘liq badiiy-estetik vazifasiga ko‘ra farqlanadi. T.Qayipbergenovning “Sekretar” povestida maktab direktori Tajen Izimbetovga muallif tomonidan quyidagicha tavsif beriladi: “Maktab direktori o‘rta bo‘yli, qotmadan kelgan, ozg‘in bo‘lgani bilan har so‘zi salmoqdor qilib gapiradigan odam. Tinimsiz mehnat qiladi. Kunning yarmini maktabda o‘tkazsa, qolgan vaqti dalada o‘tadi”<sup>30</sup>. Keltirilgan portret tasviri orqali T.Izimbetovning tashqi ko‘rinishi, ichki olami hamda uning mehnatkash inson ekanligiga amin bo‘lamiz.

Adabiyotshunos J.Esenov, yozuvchi T.Qayipbergenov povestlaridagi kompozitsion o‘ziga xosligini shunday izohlaydi: “Hozirgi qoraqalpoq povestlari kompozitsion shakllarini ikki xilga ajraladi va “Sovuq tomchi”, “Uyqusiz tunlar” qissalari birinchi (halqasimon yoki uchburchak – S.Q) siga kiradiki, aksariyat qoraqalpoq qissalarida shu an‘anadan foydalaniladi”<sup>31</sup>. Xuddi shunday ifoda yoki tasvir natijasida povest kompozitsiyasi halqasimon (yoki uchburchak) shaklga ega bo‘ladi. T.Qayipbergenovning “Qora daftar” povesti kompozitsion qurilishi aynan halqasimon (yoki uchburchak) shaklga mansub. Zero, mazkur asarda muallif tomonidan avvalo prolog, keyin lirik qahramon xatlari (kundalik daftar), xulosa qismida epilog beriladi. “Tanho o‘zingga ma‘lum sir” povesti – parallel,

<sup>30</sup> Қайыпбергенов Т. Секретарь. Шығармалары. Бес томлық. 5-т. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 1980. – Б. 319.

<sup>31</sup> Есенов Ж. Шеберликтің сырлары. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 1986. – Б. 48.

“Sekretar”, “Rahmat, muallim” asarlari esa xronologik ketma-ketlikda bayon etilgan izchil kompozitsion shaklda yaratilgan degan xulosaga keldik.

Ikkinchi bobning uchinchi faslida **“Ijodkorning obraz yaratishdagi badiiy mahorati”** muammosi tadqiq etildi. T.Qayipbergenov povestlarida yaratilgan Atamurod, Menglimurod, Turdimurod, Kamol, Ziyoda, Gulzor, Perixon, Embergen, Oysha kabi obrazlar bir-birini takrorlamaydigan individual xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ijodkor o‘z qahramonlari bilan qalban sirlashadiki, bu albatta, yozuvchining badiiy mahoratidan darak beradi. Badiiy obrazni jonlantirishda muallif izohi, portret tasviri, psixologizm, personajlar nutqi kabi vositalar o‘ziga xos vazifa bajaradi.

T.Qayipbergenov povestlarida har bir obraz o‘ziga xos olam sifatida aks etadi. Ular ichida yoshligidanoq urush mashaqqatlarini ko‘rib voyaga yetgan o‘smir Atamurod, bolalarga ta‘lim-tarbiya berish uchun dala ishlaridan ortib vaqt topgan Menglimurod, o‘zini o‘limdan asrab qolib, unga otalik qilgan qoraqalpoq mard yigiti Qo‘snazarni qidirgan Gulzor, otasining qilmishi uchun boshidan og‘ir kunlarni kechirgan Kamol hamda o‘z muhabbatini nasihatnoma-xat orqali bizga ma‘lum qilgan Oysha obrazlari buning yorqin dalilidir. Yozuvchi asarlarida muallim, qishloq odamlari, yosh o‘smirlar, xotin-qizlar, bugungi kundagi komil inson kabi qator personajlarni tasvirlashida, ularning xarakteri, ichki olamini yoritishida o‘ziga xos individuallik namoyon qiladi.

“Sovuq tomchi” povestida yozuvchi Kamol, Jamol, Guljon, Ziyoda, Bibizoda kampir, O‘mirboy, Begjon kabi obrazlarni yaratsa, “Uyqusiz tunlar” povesti bosh qahramoni Gulzor obrazi tasviri asar syujeti rivojlanishida katta rol o‘ynaydi. Asarda Gulzorning tashqi ko‘rinishida nuqsoni bo‘lsa-da, ichki dunyosi go‘zal, fahm-farosatli, qalbi pok qiz ekanligini qahramonning ichki kechinmalari orqali yoritib beradi.

“Qora daftar” asarida Oysha obrazini tasvirlashda uning hayot yo‘llarida turli xil mashaqqatlarga duch kelishini o‘z onasi tilidan “soch” detali orqali ifodalaydi. Embergenning esa ichki va tashqi qiyofasini o‘zaro muvofiqlikda tasvirlaydi.

Yozuvchi povestlarida bosh qahramon obrazini tasvirlashda uning atrofidagi ikkinchi darajali personajlar, ya‘ni salbiy obrazlar vositasida beradi. Xususan, “Sekretar” asarida urushdan qochgan Ataxon obrazi muallif tilidan berilgan peyzaj tasviri orqali ifoda qilinadi. “Rahmat, muallim” povestidagi Duysen mulla, Serali kabi salbiy qahramonlar xarakter xususiyatlari bolalar tilidan bayon etiladi.

“Sovuq tomchi” povestida Kamolni o‘zidan past ko‘radigan “Katastrofa”ning madaniyat xodimi bo‘lishiga qaramasdan, ayrim odamlarning kasbini hurmat qilmaydigan, ularga bepisandlik bilan qaraydigan, maqtanchoq va madaniyatsiz kimsa ekanligi dialoglar asosida yoritiladi. Asardagi Jamol obrazi o‘g‘li Kamolning, ayrim joylarda Guljon tilidan oshkor etilgan. Jamolning noma‘qul ishlari bir umr farzandi yuziga dog‘ bo‘lib qolishi, ya‘ni, urushdan qochgan kishi qilmishlari uchun uning oila a‘zolari aybdor sifatida qoralangan. “Qora daftar” asarida esa, Embergenning yaqin do‘sti O‘roz obrazi orqali ikkiyuzlamachi, o‘z do‘stiga xiyonat qilishdan ham top tortmaydigan odam qiyofasi tasvirlanadi. O‘roz obrazi Oyshaning kundalik daftaridagi yozuvlar hamda Embergenga yozilgan

xatlarda yanada teran namoyon bo‘ladi. Umuman, T.Qayipbergenov povestlaridagi obrazlar tizimi, personajlar taqdirining badiiy talqinida yozuvchiga xos ijodiy uslub, individual xususiyatlar yaqqol namoyon bo‘ladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**T.Qayipbergenov povestlaridagi badiiy xususiyatlar**” deb nomlangan holda uch fasldan tashkil topgan. Birinchi faslda “**T.Qayipbergenov povestlarida bayon qilish turlari**” masalasi ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Adabiyotshunos P.Nurjanov voqealarni bayon etishning I, II, III shaxs shakllari to‘g‘risidan fikr yuritar ekan, tojik va boshqa Markaziy Osiyo xalqlari adabiyoti bilan qiyosiy o‘rgangan olim S.Yu.Babayeva qarashlariga tayangan holda quyidagi turlarini ta’kidlab o‘tadi: “1. Asarda tasvirlangan voqealarda hikoyachi munosabati ochiq ko‘rinadi. Bu o‘rinda hikoyachi muallif pozitsiyasini ma’lum qirralarini o‘zida namoyon etadi. 2. Hikoyachi qahramonni “tashqaridan” kuzatadi, voqealarning obyektiv tasviri beriladi. Muallif nutqi qahramon so‘zlash manerasi, intonatsiyasi, dunyoqarashi kabi xususiyatlarini o‘ziga singdirib yuboradi. 3. Uchinchi shaxs shaklining bu tipida voqealarni bayon etish go‘yo muallif ishtirokisiz olib boriladi”<sup>32</sup>. Demak, olimlarning yuqoridagi fikrlariga tayangan holda T.Qayipbergenov povestlaridagi voqealarni bayon qilish turlarini quyidagicha o‘rganamiz: birinchi shaxs shaklida hikoyachi (roviy), hikoyachi-qahramon tilidan bayon etiladi. Bu toifaga “Rahmat, muallim”, “Sovuq tomchi”, “Uyqusiz tunlar”, “Qora daftar” povestlarini kiritish mumkin. Uchinchi shaxs shaklida bayon etilgan asarlarga “Sekretar”, “Tanho o‘zingga ma’lum sir” misol bo‘ladi.

Yozuvchining “Rahmat, muallim” povesti voqealari boshdan oxir birinchi shaxs birlik shaklida personaj Turdimurod tilidan bayon etiladi. Asar qahramonlari xarakteri, peyzaj va portret tasvirlari aksariyat qismini muallif oddiy qishloq bolasi tilidan mohirona bayon qiladi. Asarda tasvirlangan qishloqning muallim – Menglimurod kelishidan oldingi hayoti va sharoitini Turdimurod tilidan bayon qilinadi. Xususan, “U birinchi marta kelganida qishloqda ishlar o‘lda-jo‘lda edi. Hatto, kattalar o‘zaro kelisha olmay, ba’zilari “birlashib yashaylik” desa, ikkinchi tomon “yo‘q, alohida yashaymiz”, – deya o‘chakishayotgan kunlar edi. Shu paytlarda kattalarning urush-janjallari bizga, bolalarga g‘am-tashvish keltirishi, qishloq va odamlar taqdiri ayanchli ekanligini o‘ylab ham ko‘rmaymiz. Butun qishloq bolalari jamlanib ertalabdan kechgacha ko‘chani changitib, futbol yoki tuproqda o‘tirib oshiq o‘ynaymiz...”<sup>33</sup>. Agar, mazkur voqealar muallif tilidan bayon etilganda, asar saviyasi tushgan bo‘lar edi. Shuning uchun ham muallif voqealarni birinchi shaxs (hikoyachi-qahramon) tilidan bayon qilishni lozim topadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mazkur holatda yozuvchi bayon qilishning har xil turlaridan foydalanish orqali, asar g‘oyasini ochib berishdagi o‘ziga xos mahoratini va ijodiy individualligini namoyon qilgan.

<sup>32</sup> Nurжанов П. Көркем прозаның баянлаў усылы хэм оны изертлеўдиң айырым теориялық мәселелери // Эдебият ҳаққында ойлар. – Нөкис: Билим, 2023. – Б. 8.

<sup>33</sup> Қайыпбергенев Т. Муғаллимге раҳмет. Повестълер. – Нөкис: Билим, 2018. – Б. 3.

“Sovuq tomchi” povesti voqealari birinchi shaxs tomonidan, qahramon tilidan” orqali aks ettiriladi. Muallif va asar qahramoni Kamol hammomda tanishadilar hamda voqealarning tug‘ilishiga “bir sovuq tomchi” detali turtki asos bo‘ladi-ki, bu holat asarda shunday tasvirlanadi: “Qadrli o‘quvchim, Kamol aytgan “hayotning sovuq tomchisi” shudir, balki. Lekin, harbiy xizmatga shoshilinch ketayapti, sirli juft daftarini bergan bilan uni e‘lon qilish to‘g‘risida hech narsa demagan edi. Daftarni o‘qib chiqib ba‘zi joylarini tuzatgach, matbuotda chop etish darajaga keldi. Shu maqsadda uning o‘ziga xat yozdim. Telegramma keldi. “Nashr etsangiz, baxtliman” debdi. Mayli, bechora yigit baxtli bo‘lsin!”<sup>34</sup>, – deya keltirib o‘tadi.

“Qora daftar” povestida yosh kelin Oyshaning Embergenga nisbatan muhabbatga to‘la tuyg‘ulari “kundalik daftar” shaklida bayon qilinadi. Muallif asarning kirish qismida yoshlar orasidagi muhabbat, ularning turmush qurishi, komillikka erishish yo‘llari kabi masalalar haqida qisqa izohlar bergan holda barcha voqealar tizmasini Oyshaning qora daftaridagi xotiralari orqali tasvirlaydi. “...Sevgilim Embergen! Nimalar qilib qo‘yding?! Eshitishim bilan yugurib keldim. Attang to‘siqlarga duch kelib, yelkandan nafas olib o‘tiribman. Yolg‘iz o‘tiribman. Yolg‘izlik naqadar og‘ir. Har xil xayollar og‘ushida boshim qotib qoldi, butun badanim qizib, qo‘l-oyog‘im qaqqshayapti”<sup>35</sup>. Muallif povestdagi barcha voqealar tafsilotini Oyshaning tilidan bayon qiladi.

Mazkur faslda tahlilga tortilgan barcha asarlarda yozuvchining o‘ziga xos bayon qilish turlarini foydalanishdagi uslubiy izlanishlari yaqqol seziladi.

Uchinchi bobning **“Yozuvchi povestlarida badiiy so‘zdan foydalanish mahorati”** deb nomlangan ikkinchi faslida T.Qayipbergenov asarlaridagi so‘z qo‘llash mahorati, muallifning jonli xalq leksikasidan foydalanishdagi ijodiy-uslubiy o‘ziga xosligi, tahlil qilindi.

Yozuvchi o‘z g‘oyalarini badiiy talqin qilishda maishiy buyumlar, kasbiy leksika, maqol-matallar, hikmatli so‘zlar, milliy an‘analar va laqablardan samarali foydalangan. Ularni qo‘llash orqali qoraqalpoq xalqiga oid milliy koloritni namoyon etadi. Ijodkor asarlari tilining badiiyligi va betakrorligi bilan boshqa yozuvchilardan ajralib turadi.

O‘tkir psixologik asosga qurilgan “Tanho o‘zingga ma‘lum sir” povestida yozuvchi maqol-matallardan samarali foydalanadi. Misol tariqasida, “Oh sho‘r peshonam!.. Onali yetim zo‘r yetim, otali yetim xor yetim deb bekor aytilmagan ekan! Sen sen ota emas, ona bo‘lganingda “qizim uyda qilig‘i ne kuyda” deb ming‘irlab qo‘yarmiding?...” Perixonning ichki nido va kechinmalaridan anglash mumkinki, u o‘zining o‘tgan umridan keskin norozi. Chunki, ona tarbiyasini ko‘rmagani, bu hayotga kelib ayol kishidan maslahat olmagan, bugun o‘zi bilan bir qatorda begunoh qizi Svetlananing hayotiga ham dog‘ solishi mumkin. Boshidan o‘tgan qismatlarda o‘z otasining ham aybi borligini fahmlaydigan Perixon “Onali yetim zo‘r yetim, otali yetim xor yetim” deya afsus-nadomat chekadi. Muhabbat deb atalgan bepayon xayol dengizini Polvon bilan birga kechib

<sup>34</sup> Қайыпбергенов Т. Суўық тамшы. Повестьлер. – Нөкис: Билим, 2018. – Б. 242.

<sup>35</sup> Қайыпбергенов Т. Қара дәптер. Тәнха өзіңе мәлим сыр. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1999. – Б. 81.

o'tishga bel bog'lashi bugun unga pand berdi. Qiz otasining "qizim uyda qilig'i ne kuyda" deb uni tez-tez tergab turmaganiga qattiq noliydi.

T.Qayipbergenov asarlari tili, so'zlarning qo'llanilishi, o'y-xayollar teranligi, qoraqalpoq xalqi turmush tarzi bilan milliy koloritini yuksak darajada badiiy talqin etadi. Shuningdek, adib maqol-matallar, aforizmlar, qahramonlar nutqi, monolog va dialoglar orqali xalqimiz milliy dastur va an'analarni o'ziga xos uslubda badiiy ifoda qiladi. Bundan tashqari, qahramonlar ismi va qo'yilgan laqablar orqali ularning shaxsiy xulq-atvorlari hamda xatti-harakatlarini individuallashtiradi. Badiiy tasvir vositalarining asosli va o'rinli ishlatilishi orqali asar mazmuni va badiiyatini ta'minlashda mukammallikka erishadi.

Uchinchi bobning **"Povestlarda badiiy detalning estetik xizmati"** deb nomlangan uchinchi faslida T.Qayipbergenov asarlarida hayotiy va badiiy haqiqat uyg'unligi, qahramonlar xarakteri, portret tasviri, badiiy detal hamda ularning estetik vazifalari tahlil qilindi. Ayniqsa, har bir povestdagi hayotiy hodisalar badiiy talqinida personajlar psixologiyasini teran yoritish, tabiat hodisalari rang-barangligini ifodalashda badiiy detallarga alohida e'tibor qaratadi. Xususan, "Rahmat, muallim" povestida qishloq tabiati bilan XX asrning dastlabki yillaridagi og'ir vaziyatlarni o'zaro aloqadorlikda tasvirlashga erishgan. Ayniqsa, qishloq go'zalligi, tabiat mavsumlarining o'ziga xosligi peyzaj tasviri orqali obrazli ifodalangan.

"Sovuq tomchi" povesti qahramoni Kamolni harbiy xizmatga kuzatayotgan epizodda qo'llanilgan portret va badiiy detallar asar g'oyasini anglashda muhim badiiy vazifa bajargan. "Uyqusiz tunlar" asarida esa, urush oqibatida yetim qolgan yoshlarning ota-onasi bor bolalarga havas bilan qarashi, portret tasvirlari hamda bolalar qo'lidagi qo'g'irchoq kabi detallar orqali ifoda qilinadi. "Tanho o'zingga ma'lum sir" povestida ham voqealar badiiy detal va portretlar yordamida ko'z o'ngimizda yaqqol namoyon bo'ladi. Qizining to'yiga borayotgan baxtli ona – Perixon hamda uning atrofidagi yo'lovchilarning xatti-harakatlari, o'zaro dialoglar, badiiy detallar o'rin olganligi ko'zga tashlanadi. Adibning "Sekretar" povestida predmet detallardan samarali foydalangan: "Hovli yoqasidagi ariqdan sakraganda egilib o'sgan daraxt shoxiga telpagi ilib qoldi. Telpagiga qo'l uzatgan mahal daraxtlarga ko'zi tushdi.

– O'-o'-o', bahor kiribdi! Otam bunday paytda daraxtlarning teris butoqlaridan kesib olib nihollar o'tqazar edi!.. – U shunday xayollarda uyiga kirib, onasi pishirib, tayyorlab ketgan jo'xori yormani kosaga quyib ichdi-da, qo'liga bolta olgancha tashqariga chiqdi"<sup>36</sup>. Yuqoridagi birinchi misolda "telpak" portret detal, ikkinchisida "teris butoq", "yangi nihol" peyzaj detal va uchinchisidagi "jo'xori yorma" detali orqali urush davri xalq hayotini obrazli ifodalab bergan. Shuningdek, povestdagi o'g'rilik voqealari "oldin pishirilgan go'sht"ni "sandiq"dan chiqarish, "pishgan go'sht"ning tugamasligi, "go'shtli qovurg'a", "mol go'sht" kabi predmet detallar vositasida ochiladi.

"Rahmat, muallim" asarida esa "chilvir", "oppoq chit" yoki "dastro'mol" kabi predmet detallar orqali Duysen mullaning xalq mulkini talon-taroj qilgani, o'g'rilik

<sup>36</sup> Қайыпбергенов Т. Секретарь. Шығармалары. Бес томлық. 5-т. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1980. – Б. 332.

voqealari ochib beriladi. “Tanho o‘zingga ma’lum sir” povestida predmet detallar asar qahramoni Perixonning o‘tgan umrini esga tushiradi.

Asarda “surat”, “oydinli ko‘ylak” predmet detallari orqali Perixonning psixologik holati yorqin namoyon bo‘ladi. Muallif asarda badiiy detallarni to‘g‘ri tanlashga erishgan holda voqealarni o‘ziga xos tarzda, jonli tasvirlab bergan. “Sovuq tomchi” povestida predmet, portret, va psixologik detallardan samarali foydalaniladi. Xususan, “Men ularga nima deyman? Indamadim. Haliyam, yaxshigina etikdo‘zman. Odamlarning oyoqlariga qarayman. Odamlarning yuziga tikiladigan ish qilsam nima qilardim”<sup>37</sup>. Mazkur epizodda otasi sotqin bo‘lgani uchun g‘amgin bo‘lib o‘sgan Kamolning ruhiy holati unga mos detallar orqali yoritilgan. “Qora daftar” povestida pochta qutisiga kelib tushgan “Qora daftar” predmet detalida uning egasi – yosh kelinchak taqdiri ifodalanadi. Mazkur detal orqali muallif asar voqealarini unda bayon etilgan “Nasihatnoma xat”ga singdirib yuboradi. Oyshaning ruhiy holati, surat va undagi baquvvat gujum (qayrag‘och) badiiy detallari orqali asar ta’sirchanligi ta’minlanadi.

## XULOSA

T.Qayipbergenov povestlarida badiiy mahorat muammosi bo‘yicha tadqiqotimizda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ijodiy mahorat har bir yozuvchining badiiy-estetik izlanishlari mahsuli. Ijodkor mahorati, avvalo, yaratgan asarlari hayotiy voqealarni obrazli ifodalash, mavzu va g‘oya tanlash hamda shakl va mazmun mutanosibligini ta’minlashda kuzatiladi.

2. T.Qayipbergenov povestlari g‘oyaviy-mavzuviy, janr va badiiy jihatdan rang-baranglik kasb etishida adib badiiy tafakkuri alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ularni shunday tasniflash mumkin: 1. Urush yillari qishloq yoshlari hayoti tasviriga bag‘ishlangan asar – “Sekretar” povesti; 2. Ta’lim-tarbiya va ma’rifiy ishlar yo‘nalishida yozilgan povest – “Rahmat, muallim”; 3. Urushning fojeaviy oqibatlari badiiy talqin qilingan povestlar – “Sovuq tomchi”, “Uyqusiz tunlar”; 4. Muhabbat va hayotiy-maishiy muammolar tavsirlangan “Tanho o‘zingga ma’lum sir”, “Qora daftar” povestlari g‘oyaviy-mavzuviy jihatdan o‘ziga xoslik kasb etadi. Shuningdek, “Sekretar” povestida epik, “Rahmat, muallim”da liro-epik tasvir ustunlik qilsa, “Sovuq tomchi”, “Uyqusiz tunlar”, “Tanho o‘zingga ma’lum sir”, “Qora daftar” povestlarida liro-psixologik tasvir imkoniyatlariga tayaniladi. Yozuvchi mazkur tasvir usullaridagi povestlari bilan qoraqalpoq adabiyotiga janr va shakl jihatdan rang-baranglik olib keldi.

3. T.Qayipbergenov “Sekretar”, “Rahmat, muallim” povestlarida davr, ijtimoiy holat, xalq taqdiri, bolalar hayoti izchillikda xronikal syujet asosida tasvirlansa, “Sovuq tomchi”, “Uyqusiz tunlar” asarlari voqealari liro-psixologik tarzda bir markazga jamlangan holda konsentrik syujetdan foydalaniladi. “Tanho o‘zingga ma’lum sir” povestida personajlar o‘tmishi va buguni o‘zaro aloqadorlikda retrospektiv syujet asosida ifodalansa, “Qora daftar”da voqealar

<sup>37</sup> Қайыпберенов Т. Суўық тамшы. Повестьлер. – Нөкис: Билим, 2018. – Б. 211.

oqimi emas, balki qahramonlarning tashqi hodisalarga munosabati bilan qalb tugʻyonlari, xotiralari yordamida assotsiativ syujet orqali tasvirlanadi.

4. Yozuvchi povestlarining kompozitsion yaxlitligini taʼminlash, uning gʻoyasini yuzaga chiqarishda sarlavha, epigraf, lirik chekinish, qistirma epizod, prolog, epilog, detal kabi badiiy tasvir usullari ijodkor mahorati sifatida belgilandi.

5. “Sovuq tomchi”, “Uyqusiz tunlar”, “Qora daftar” povestlari halqasimon (yoki uchburchak), “Tanho oʻzingga maʼlum sir” asari parallel, “Sekretar”, “Rahmat, muallim” povestlari izchil kompozitsiya usulida yaratilganligi ijodkorning bu boradagi badiiy mahorati belgilari sanaladi.

6. Yozuvchi povestlarida yaratilgan har bir obraz asar gʻoyasida katta ahamiyatga ega boʻlib, ularda detallashtirish, portret yaratishga va ramziy tasvirlarga katta eʼtibor qaratilgan.

7. T.Qayipbergenov ijodida bayon qilish turlariga muvofiq, birinchi shaxs (subyektiv) birlik shaklidagi hikoyachi (roviy), hikoyachi-qahramon tilidan bayon etilgan povestlar sirasiga “Rahmat, muallim”, “Sovuq tomchi”, “Uyqusiz tunlar”, “Qora daftar” asarlari mansub boʻlsa, “Sekretar”, “Tanho oʻzingga maʼlum sir” povestlarini uchinchi shaxs (obyektiv) tomonidan bayon etilgan asarlar tarkibiga kiritish joiz.

8. Yozuvchi povestlari tilining jozibadorligi, leksikasining boyligi ijodiy individualligidan darak beradi. Qoraqalpoq xalqining hayot tarzi milliy koloriti, urf-odat va dasturlarini ifodalashda soʻz va tasvirni toʻgʻri tanlash orqali muallif asar tilining oʻziga xosligi va taʼsirchanligiga erishgan. Shuningdek, yozuvchi asarlarida qahramonlar ismi va laqablardan foydalanish orqali personajlarni individuallashtirish bilan bir qatorda qahramonlar xarakterini yorqin namoyon etadi. Bu esa, ijodkorning xalq tilidan foydalanish mahorati, ijodiy isteʼdodi, milliy koloritlar bilimdoni ekanligidan dalolat beradi.

9. Ijodkor asarlarida maqol-matallar va aforizmlarni qoʻllash orqali fikrlarini ixcham, aniq va loʻnda ifodalashga erishgan. Asar gʻoyasi va mazmunini taʼsirchanligini oshirish maqsadida epitet, metafora, metonimiya, sinekdoxa, giberbola kabi badiiy tasvir vositalaridan samarali foydalangan. Tasviriy ifodalarni qoʻllash orqali asar hissiy-taʼsirchanligini oshirish bilan bir qatorda davr haqiqati, xalq ruhiyati, milliy oʻziga xosligini badiiy dalillashga erishgan.

10. Yozuvchi asarlarida predmet, portret, peyzaj va psixologik detallar yordamida qahramonlar ichki olami, xarakter xususiyatlarini yoritish, voqealarni ixcham va aniq tasvirlashga erishgan. Qolaversa, tanlangan detallar asar syujeti badiiylikini taʼminlashda oʻziga xos badiiy funktsiya bajargan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**  

---

**НУКУССКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
ИНСТИТУТ**

**САРСЕНБАЕВ КОНЫСБАЙ ЖАКСЫЛЫК УЛЫ**

**ПРОБЛЕМА ХУДОЖЕСТВЕННОГО МАСТЕРСТВА В ПОВЕСТЯХ  
Т.КАЙЫПБЕРГЕНОВА**

**10.00.12 – Каракалпакская литература**

**АВТОРЕФЕРАТ диссертации доктора философии (PhD) по  
ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Нукус – 2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.2.PhD/Fil4932.

Диссертация выполнена в Нукусском государственном педагогическом институте.

Автореферат диссертации размещён на трёх (узбекский, русский, английский (резюме)) языках на веб-странице Научного совета ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

Научный руководитель:

**Палымбетов Камалбай Сарсенбаевич**  
доктор филологических наук (DSc), доцент

Официальные оппоненты:

**Гайлиева Огулбай Курбанмурадовна**  
доктор филологических наук (DSc), профессор

**Камалова Дильфуза Энуаровна**  
доктор философии (PhD) по филологическим наукам


Ведущая организация:

**Самаркандский государственный университет**

Защита диссертации состоится 28 март 2025 года в 14<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 при Каракалпакском государственном университете им. Бердаха. (Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч. Абдилова, дом 1. Тел: (99861)223-59-25, факс: (99861)223-59-25; e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета им. Бердаха (зарегистрирована за № 270). Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч. Абдилов, дом 1. Тел: (99861) 223-59-25.

Автореферат диссертации разослан 14 март 2025 года.  
(Протокол реестра рассылки № 5 от 14 март 2025 года).



**К.К. Оразымбетов**  
председатель Научного совета по присуждению  
ученых степеней, д.филол.н., профессор

  
**Ж.О. Тапирбергенов**  
Научный секретрь научного совета,  
присуждающего научные степени, доктор  
философии (PhD) по филологическим наукам,  
доцент

  
**З.У. Бекбергенова**  
председатель научного семинара при Научном  
совете по присуждению ученых степеней,  
д.филол.н., профессор



## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы.** В мировой литературоведческой науке особое внимание обращается на усовершенствование жанра повести с точки зрения поэтики и вопросам исследования индивидуально-стилевых поисков писателя. Особенно, в художественной литературе изучение тенденции развития традиции национальной повести, творческой концепции автора и мастерства писателя продолжается в качестве литературного процесса. Возникает необходимость исследования в новых направлениях описания действительности жизни в повестях, обеспечения целостности сюжета и композиции, определения места индивидуального мастерства писателя в развитии системы образов и духовного мира человека. Так как, художественное мастерство писателя, индивидуальный стиль являются основными из главных вопросов, обеспечивающие важность исследования создания художественного сюжета и структуры композиции и последовательного раскрытия специфических особенностей поэтики произведения.

В мировом литературоведении на основе различных проявлениях художественности в вопросах мастерства в прозе возникают новые направления изучения взгляда автора, сюжета, композиции, образа, характера, типов повествования и выбора слов, эстетический идеал в использовании деталей и о проблемах художественного анализа. В частности, выделяются особые подходы, связанные со структурой поэтики повестей, особое внимание обращается с научно-теоретической точки зрения на исследования факторов, обеспечивающих индивидуальность писателя и художественное мастерство в раскрытии идеи произведения, образа и характера, жанровых и форменных, стилиевых поисков.

В годы независимости в каракалпакском литературоведении особое внимание обращается на изучение художественного творчества писателей, их поэтические поиски и различные секреты мастерства, раскрытие их места в литературном процессе, особенно, выражению индивидуальных особенностей и художественного мастерства писателей. Ведь «... внимание к литературе, искусству и культуре – это прежде всего внимание к нашему народу, внимание к нашему будущему, и как говорил наш великий поэт Чулпан, мы совсем не имеем право забывать о том, что если литература и культура живы, нация будет жить»<sup>1</sup>. В этом значении, изучение таких вопросов как идейно-тематические направления, жанровые и форменные поиски, сюжет и композиция, образ и характер, художественная деталь, поэтическое мастерство в освещении видов повествования в повестях Героя Узбекистана, Народного писателя Узбекистана и Каракалпакстана Тулепберген Кайыпбергенова одна из актуальных проблем литературоведения.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёвнинг «Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётига халқаро миқёсида ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масаллари» мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига йўллаган табриги // Халқ сўзи. – Тошкент, 2018 йил 8-август.

Данная диссертация в определенной степени служит для реализации задач, обозначенных в указе Президента Республики Узбекистан за №5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», в указе Президента Республики Узбекистан за № 60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022 - 2026 годы», в указе Президента за №5850 от 21 октября 2019 года «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка» в постановлении Президента Республики Узбекистан за № 3271 от 13 сентября 2017 года «О программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению культуры чтения» и других нормативно-правовых актах, касающихся данной отрасли.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий I. «Формирование системы инновационных идей и их применение в развитии духовно-нравственного, культурного демократического, правового государства и информационного общества».

**Степень изученности проблемы.** В мировом литературоведении научно-теоретические проблемы исследования вопросов художественного мастерства рассматривались в трудах таких ученых как М.М.Бахтин, В.М.Храпченко, Л.И.Тимофеев, А.А.Потебня, Г.Н.Поспелов, В.М.Головко В.В.Хализев<sup>2</sup>, у тюркских народов, в частности, у казахских ученых как З.Кабдолов, М.Адибаев, А.Азизов, С.Акашева, Г.Ержанова, Ж.Бакашова<sup>3</sup>, у киргизского литературоведа А.Абдирамановой<sup>4</sup>, у таджикских ученых как А.Каримов, Х.Хашимова<sup>5</sup>, в узбекском литературоведении А.Аброров, А.Рашидов, С.Захидова, К.Тагматов, Г.Ташпулатов, У.Туйчиев. К.Ташанов, Ф.Раджапова, И.Ешматова, У.Расулова<sup>6</sup>, в каракалпакском

---

<sup>2</sup> Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975. – 502 с.; Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М.: Писатель, 1975. – 408 с.; Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – М.: Искусство, 1976. – 614 с.; Его же. Теоретическая поэтика. – М.: Высшая школа, 1990. – 343 с.; Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. – М.: Просвещение, 1976. – 200 с.; Поспелов Г.Н. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 1978. – 351 с.; Головко В.М. Поэтика русской повести. – Саратов: 1992. – 192 с.; Хализев В.Е. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 2002. – 397 с.; Его же. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 2004. – 408 с.

<sup>3</sup> Кабдолов З. Сөз өнері. – Алматы: Мектеп, 1976. – 349 б.; Адибаев М. О поэтике повестей и рассказов М.О.Ауезова двадцатых годов: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1987. – 24 с.; Өзиев Ө. Қазақ повесі. – Алматы: Мектеп, 1989. – 224 б.; Акашева С. Жанрово-стилевые особенности современной повести Казахстана (на материале казахских и русских повестей 60-х-начала 80-х годов): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1991. – 24 с.; Ержанова Г. Қазіргі қазақ повестеріндегі психологизм мәселелері (70-80 жылдар): Филол. ғыл. канд. дис. ... автореф. – Алматы, 1994. – 25 б.; Бакашова Ж. Художественное мастерство Чингиза Айтматова: Автореф. дис. ... д-ра. филол. наук. – Алматы, 1998. – 52 б.

<sup>4</sup> Абдыраманова А. Поэтика современных киргизских повестей (70-80-е гг.): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Бишкек, 2002.

<sup>5</sup> Каримов А. Становление лирической повести в современной таджикской прозе 60-80-х годов: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Худжанд, 2010. – 42 с.; Хошимова Х. Идеино-художественные особенности таджикской повести периода независимости: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2015. – 42 с.

<sup>6</sup> Аброров А. Ўзбек совет повестининг таркиб топиши ва тараққиёти: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент, 1975; Рашидов А. Проблема духовно-нравственного становления героя в узбекской повести о рабочем классе: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1981; Захидова С. Жанровые и стилиевые

литературоведении таких ученых как Г.Есемуратов, М.Нурмухамедов, Ж.Нарымбетов, А.Кожыкбаев, К.Камалов, С.Бахадырова, К.Султанов, Ж.Есенов, Х.Отемуратова, З.Бекбергенова, К.Алламбергенов, П.Нуржанов, Ж.Сагидуллаева, З.Алламуратова, З.Ктайбекова<sup>7</sup> на примере прозаических произведениях созданных в определенные периоды. А именно, проблема художественного мастерства в истории литературы и в литературном процессе имеет свое место и считается одной из важнейших научных проблем требующих специального исследования на примере произведения талантливых писателей.

**Связь темы диссертации с научно-исследовательскими работами высшего образовательного учреждения или научно-исследовательскими учреждениями, где выполнена диссертация.**

